



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI DENOV TUMANI HOKIMINING
FARMOYISHI

190500, Denov tumani, Sh.Rashidov ko‘chasi 238-uy, 190500, tel: 0(376)413-18-97, faks: 0(376) 413-10-88, denov.t@exat.uz

2022 йил «13» январь

2-8-111-F/22

Денов туман ҳокимлиги

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 73-moddasiga muvofiq hamda Denov tuman hokimligining 2022 yil 12 yanvardagi 01-37/22-sonli xatini inobatga olib, tuman mahalliy byudjetining zaxira jamg‘armasi mablag‘i hisobidan quyidagi maqsadlarga mablag‘ ajratilsin:

1. Denov tuman hokimligi Moliya bo‘limi (A.Muxamadiev) tuman mahalliy byudjetining zaxira jamg‘armasi mablag‘i hisobidan:

Tuman hokimligiga:

Xotin-qizlar xatlov blankasini tayyorlatish uchun 25 431,0 ming so‘m;

"Ayollar so‘rovnomasi" blankasini tayyorlatish uchun 14 800,0 ming so‘m;

Tuman hokimligiga IIB va mahallabay ishlash markaziga kompyuter jihozlari sotib olish uchun 40 422,0 ming so‘m;

Tuman hokimligi yuristkonsultiga printer sotib olish uchun 3 595,0 ming so‘m;

Tuman hokimligiga elektr va xo‘jalik jihozlari sotib olish uchun 7 220,0 ming so‘m;

Tuman hokimligi xizmat avtomashinalariga extiyot qismlar sotib olish uchun 52 000,0 ming so‘m;

Tuman hokimligiga Mustaqillik bayrami va hokimning kapital qurilish, kommunikasiyalar va komunal xo‘jalik masalalari bo‘yicha o‘rinbosarining xizmat uyiga gilam sotib olish uchun 9 300,0 ming so‘m;

Tuman hokimligi xizmat uyiga va mahallabay ishlash markaziga mebel jihozlari sotib olish uchun 51 600,0 ming so‘m;

Tuman hokimligiga yuridik xizmat ko‘rsatish markazi uchun mebel jihozlari sotib

olishga 30 160,0 ming so'm;

Tuman hokimligiga yuridik xizmat ko'rsatish markazi uchun kondisionerlar sotib olishga 24 500,0 ming so'm;

Tumandagi saylov uchastkalariga lampalar sotib olishga 3 100,0 ming so'm;

Tuman hokimligiga tovar moddiy zaxiralar sotib olishga 6 000,0 ming so'm.

Jami ushbu xarajatlar uchun 268 128,0 (ikki yuz oltmish sakkiz million bir yuz yigirma sakkiz) ming so'm ajratilishi yuzasidan tuman mahalliy byudjetiga tegishli o'zgartirish kiritish vazifasi yuklatilsin.

2. Denov tumani bo'yicha g'aznachilik bo'linmasi (X.Primov) tuman hokimligi hisobxonasi (A.Normurodov) ajratilgan mablag'larni qonunchilikda o'rnatilgan tartibda xujjatlarni rasmiylashtirish va maqsadli sarflash vazifasi yuklatilsin.

3. Ushbu farmoyish ijrosini nazorat qilishni tuman hokimining birinchi o'rinbosari B.Abdurayimov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimining birinchi
o'rinbosari**



Abdurayimov B. R.